

**TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – DOLZARB
PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Tilavoldiyev.SH.X,

Farg'ona davlat universiteti

harbiy ta'lim fakulteti dotsenti,

Xabibullayev.A.

harbiy ta'lim fakulteti 2 kurs talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish masalalari xaqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *talabalar, o'quvchilar, harbiy vatanparvarlik, vatanparvarlik tuyg'usi, harbiy ta'lim, ijtimoiy-siyosiy ong, fuqarolik jamiyati, ta'lim, tarbiya, rivojlanish, tarixiy tajribalar, ilmiy tavsiyalar.*

Bugungi kunda talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha oliy ta'lim tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilingan konsepsiyalarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, shuningdek, vatanga xizmat qilish ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalashga oid keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi". Har qanday ishda vatanparvarlik hissi namoyon bo'lishi kerak. Chunonchi, davlatimiz ramzlari, milliy qadriyat va an'analарimiz, tarixiy obidalar va qadamjolarimiz shular jumlasidandir. Demak, vatanparvarlik – o'z Vatani va ona yeriga muhabbat; uning tarixi, madaniyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qilish; har bir insonning o'z kuchiga ishonchi va butun jamiyatning birdamligi; o'z mamlakati tarixiga aloqadorligi va kelajagi uchun mas'uliyatni his etishi; bir so'z bilan aytganda o'z ona Vatani uchun jonbozlik ko'rsatishidir. Bunday jonbozlik esa yoshlarda ta'lim jarayonida singdiriladi. Darhaqiqat, bugungi kunga qadar yoshlar orasida vatanparvarlik hissini shakllantirish keyingi o'rinlarga tushib ketgan edi.

2022 -2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida bu o'z aksini topdi. Jumladan, yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi vazifalar belgilandi:

birinchidan, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

ikkinchidan, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

uchinchidan, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish. Shunday ekan, yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirish davr talabi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalay olmasak, ularda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda yoshlarning ta'lim olishi, kasbhunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo'llabquvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 27 iyundagi "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 267-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi "O'smirlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda o'zbekiston respublikasi qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zahirasi tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4375-son qarori muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarga, xalqlarning madaniyatiga va o'zligiga bo'lgan tahdidlar, yod g'oyalarni singdirishga bo'layotgan urinishlar kuchayib borayotgan globalizatsiya jarayonlari jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlar eng zaif qatlam bo'lib qolayotganligi sababli bu yo'nalishda qo'shimcha kompleks chora-tadbirlar qabul qilinishi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi, deb ta'kidlangan

Harbiy vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyatini bilish uchun avvalambor, vatanparvarlik o'zi nima, u qanaqa tushuncha yoki qanaqa fazilat ekanligini aniqlashtirib olishimiz kerak. Vatanparvarlik – qadimiy tushuncha bo'lib, uning asosi yunon tilidan («pater») olingan, ya'ni vatan so'zidan olingan. Vatanparvarlik deganda, Vatanga muhabbat, uning o'tmishi va hozirgi kuni uchun g'ururlanish mazmunidagi ma'naviy va siyosiy tamoyil, ijtimoiy hissiyot tushuniladi. Yoshlarda vatanparvarlik hissi avvalambor oiladan, maktabgacha ta'lim yoshidan singdirila boshlanadi. Keyinchalik umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, shakllantirilib, bu jarayon oliy ta'lim muassasalarida rivojlantiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida asosan Vatanni tabiiy va ma'naviy muhit sifatida aks ettiruvchi qadriyatlar interiorizatsiyasi, ya'ni vatanparvarlikning hissiy komponentlari tashkil topadi. Vatanparvarlik — kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir.

Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - «Vatan» tushunchasini shakllantirish, jonajon o'lkaga, Vatanga, xalqiga, milliy an'analari va odatlariga, boshqa millatlarga hurmat va muhabbatni tarbiyalash; millati, Vataniga g'ururni tarbiyalash; mustaqil O'zbekiston davlatidagi barcha yer usti va yer osti moddiy boyliklarini asrab-avaylash; davlat ramzlari: gimn, gerb, bayroq to'g'risidagi tushunchalarni kengaytirish, har qanday holatda ham ularni ko'z qorachig'iday asrash demakdir. Talabalarda harbiy vatanparvarlikni tarbiyalash esa – mustaqillik, erkin va farovon hayot masalasi hisoblanadi. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarimizni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy vatanparvarlikning komponentlarini ular ongiga singdirish ta'lim tizimi oldida turgan muhim masalalardandir. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodologiyasi va ilmiy asoslari insoniyat omiliga nisbatan qo'llaniladi. Bu tushunchaga insonning g'oyaviy, siyosiy, ma'naviy jismoniy va boshqa fazilatlari yig'indisi kiradi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy asoslarida O'zbekiston Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Vatanparvarlik va mustaqil Vatan himoyasi haqida g'oyalari, Oliy Majlis qonun va qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Halq ta'limi vazirligi, Mudofaa vazirligining buyruq va ko'rsatmalari, harbiy pedagogika va psixologiya, harbiy fanlar va boshqa qoida hamda meyoriy hujjatlar o'rin olgan.

Xulosa qilib aytganda, talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, ularda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyati hisoblanadi. Talabalarda davlat va jamiyat oldidagi o'zlarining mas'uliyatini anglab hissini tarbiyalash, buning uchun "o'quv-tarbiyaviy jarayonga yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash samarali shakllari va metodlarini tatbiq etish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, samarali metodik hamda moddiy-texnik bazasi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –Toshkent, O'zbekiston, 1992-yil
2. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi. 247 (6741)-soni. – 2017-yil
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida PF-4947-son 07.02.2017
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 27 iyun kuni tasdiqlangan 267-sonli “Yoshlarni harbiyvatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi” to'g'risidagi qarori.
5. Mamatov O. Vatanparvarlik - milliy istiqlol mafkurasining muhim tarkibiy qismi. Toshkent-2001y.
6. Tilavoldiyev.SH.X “Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari” o'quv darsligi, 2023 yil, Farg'ona.